




«TASDIQLAYMAN»

«SHURTAN GAZ KIMYO MAJMUASI» MCHJ

Bosh Direktor o'rinbosari

N. Xalilov

«16» 06 2023 y



## TEXNIK TOPSHIRIQ

“Shurtan gaz kimyo majmuasi” MCHJga qarashli transport vositalari uchun foydalanish muddati tugagan gaz ballonlarni almashtirish va gaz ballon uskunalarining germetikligi, agregat va uzellarining mustahkamligi, ishonchliligi bo'yicha sinovi (siqish) hamda yozuvlarini yozish va buyoqlash (metan, propan, yozuvlar oq rangda) xizmati

### 1. Umumiy ma'lumotlar

<b>1.1. Nomlanishi</b>	
1. Yangi silindrsimon (50 va 90 l) gaz ballon (propan) o'rnatish 2. Gaz ballon uskunalarining germetikligi, agregat va uzellarining mustahkamligi, ishonchliligi bo'yicha sinovi hamda yozuvlarini yozish va buyoqlash (metan, propan, yozuvlar oq rangda).	
<b>1.2. Asos va maqsad.</b>	
<b>Asos:</b> 2023 yil yillik buyurtmaga asosan -O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 11 noyabrdagi №326-sonli “Siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligi tog'risida umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori. <b>Maqsad:</b> Avtotransport vositalariga o'rnatilgan gaz ballon uskunalariga o'tkaziladigan texnik ko'rik hamda yangi silindrsimon gaz ballon(propan) sotib olish va o'rnatish “Sanoat xavfsizligi” davlat qo'mitasining gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish huquqini beruvchi ruxsatnomasi mavjud bo'lgan tashkilot tomonidan qonunchilikda belgilangan texnik reglament talablari asosida amalga oshirish.	
<b>1.3. Yangilik haqida ma'lumot (uskunalar ishlab chiqarilgan yili)</b>	
2023 yil ishlab chiqarilgan yangi silindrsimon gaz ballon. <b>Miqdor:</b> Gaz ballon(propan), ortiqcha bosimni chiqaruvchi klapan, kran bilan – komp.	
<b>1.4. Ishlab chiqarish/ishlab chiqarish uchun hujjatlar</b>	
Yetkazib beruvchi YXHBga taqdim etiladigan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barcha zarur hujjatlar va litsenziyalarni berishi va taqdim etishi shart.	

### 2. Qo'llash sohasi

- Avtotransport vositalari yangi gaz ballon sotib olish va o'rnatish:  
-Gaz ballon (propan) – avtobus va yengil avtotransport vositalari uchun.
- Gaz ballonlarga texnik xizmat ko'rsatish va sinovdan o'tkazish:  
-Gaz ballon (SNG, SPG) - avtobus va yengil avtotransport vositalariga tegishli.

### 3. Bajariladigan ishlar, xizmatlar ro'yxati va hajmi

No	Ishlar, xizmatlar nomi	Xizmatning tavsifi (belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarning batafsil ruyxati)	Ishlar, xizmatlarning miqdoriy hisobi
1	Yangi silindrsimon (50 va 90 l) gaz ballon (propan) sotib olish va o'rnatish	2023 yil ishlab chiqarilgan yangi silindrsimon gaz ballon, ortiqcha bosimni chiqaruvchi klapan, kran bilan – komp.	<b>Jami: 16 dona</b> avtotransport vositasiga o'rnatilgan 29 dona gaz ballon uskunalari: II-chorak – 29 dona
2	Gaz ballon uskunalarining germetikligi, agregat va uzellarining mustahkamligi, ishonchliligi bo'yicha	-Bosim ostida gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish;	<b>Jami: 13 dona</b> avtotransport vositasiga o'rnatilgan 24 dona gaz ballon uskunalari:

	sinovi (siqish) hamda yozuvlarini yozish va buyoqlash (metan, propan, yozuvlar oq rangda)	-Gaz uskunalarini umumiy ahvoli, germetikligi va qismlarning ishonchli mahkamlanganligini tekshirish; -Ballon yozuvlarini yozish va buyoqlash; -O'rnatilgan gaz ballonlarining sinovi (opressovka) bo'yicha dalolatnoma berish	IV-chorak – 24 dona
3	Gaz ballonlarini texnik ekspertizadan o'tkazish	Gaz ballonlarini texnik ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarish	SPG ballonlari – uch yilda 1 marta; SNG ballonlari– ikki yilda 1 marta.

#### 4. Texnik talab.

##### 4.1. Asosiy texnik talablar

Konstruksiyaning texnik loyihasi bo'yicha ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalari asosida etkazib beruvchi tomonidan transport vositasiga gaz-ballon uskunasi sotib olish va o'rnatish hamda gaz ballonlarga texnik xizmat ko'rsatish va sinovdan o'tkazish bilan shug'ullanadigan tashkilot quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- ishlab chiqarish bazasiga;
- Ishlarni bajarish uchun zarur texnologik uskunalarga;
- Muhandis texnik xodimlar va ishchilar belgilangan ishlarni bajarish uchun zaruriy bilimga;
- Belgilangan ishlarni amalga oshirish uchun tasdiqlangan texnologik jarayonga;
- Ruxsat berish uchun hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga;
- Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan gaz ballon o'rnatish va sinovdan o'tkazish huquqini beruvchi ruxsatnomasi berilganligi;
- Gaz ballon uskunalarini germetikligi va qismlarning ishonchli mahkamlanganligini sinovdan o'tkazish bo'yicha laboratoriyaning akkreditatsiyadan o'tganligi to'g'risida guvohtonoma.

Davlat, yuridik va jismoniy shaxslar mol mulklari hamda insonlar hayoti xavfsizligi hamda sog'ligini ta'minlash.

**Qayta jixozlangan avtotransport vositalarini gaz ballonlarini quyidagi talablar asosida sinovdan o'tkazish:**

- Gaz ballonni yechib olish, tashqi ko'zdan kechirish, payvand choklarini tekshirish, tozalash;
- Gidravlik sinovdan o'tkazish va quritish;
- Germetikligini tekshirish;
- SPG va SNG gaz uskunalarining ulanish joylarining ishonchliligi sinovi (opressovka), gaz ballonlarining kronshteynlarga, kronshteynlar esa platformaning uzunasi bo'ylab joylashgan bruslarga ishonchli mahkamlanganligini tekshirish.

Avtotransport vositalariga faqat butun metal korpusga ega SPG-1 tipidagi o'rnatilgan gaz ballonlarni sinovdan o'tkazishga ruxsat berish.

Gaz ballonlarda tayyorlovchi zavodning tovar mahsulot belgisi, ballonning zavod raqami, tipi (SPG-1, SNG), ishlab chiqarilgan vaqti (yil, oy, kun), foydalanish muddati, massasi (kg), ishchi bosimi (MPa), sinovdan o'tkazilgan gidravlik bosimi (MPa) hamda yozuvi a buyoqlari (metan, propan, yozuvlar oq rangda) bo'lishi shart.

##### 4.2. Asosiy texnik, iqtisodiy va ekspluatatsion ko'rsatkichlar.

Atrof-muhitni muhofaza qilishni, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash.  
Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi bo'yicha iste'molchilarni chalg'itadigan xatti-harakatlarning oldini olish.

Inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslar va davlat mulki xavfsizligini ta'minlash.

#### 5. Yetkazib berish va qabul qilish qoidalariga muvofiq talab.



Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 11-noyabrdagi 326-son qarori 6,7-ilovalari transport vositasiga yangi gaz-balon uskunasi o'rnatish va o'rnatilgan gaz ballonlarining sinovi (opressovka) bo'yicha dalolatnoma hamda o'rnatilgan yangi gaz ballon pasporti rasmiylashtiriladi.

#### 6. Kafolatlarning hajmi va/yoki muddatiga qo'yiladigan talablar

Gaz ballon uskunasining kafolat muddati ishlagan kundan boshlab 12 oy.  
Xizmat ko'rsatish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 oy.

#### 7. Xizmat talablari.

Kundalik xizmat ko'rsatish (EO);

Mavsumiy xizmat (SO);

Yillik texnik xizmat ko'rsatish (TO).

Gaz-balon uskunalarini o'rnatilgan avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, gaz-balon uskunalarini tizimlari bundan mustasno, benzin va dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun mo'ljallangan uchastkalarda amalga oshirilishi mumkin.

Gaz ballonli uskunalar tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tashkilotlarning ixtisoslashgan saytlarida amalga oshirilishi kerak

Majburiy texnik ko'rikdan o'tkazishda transport vositalarining egalari yoki ular tomonidan vakolat berilgan shaxslar Davlat Yo'l harakati xavfsizligi inspeksiyasiga gaz ballon uskunalarini ulanishlarining mustahkamligi va ishonchliligiga sinovdan o'tkazilganligini hamda ballonlarning sertifikatlanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari shart.

#### 8. Xavfsizlik talablari

Xavfsizlik, yong'in xavfsizligi va yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 11-noyabrdagi VI-bob (Xavfsizlik talablari) to'g'risidagi 326-son qaroriga qat'iy rioya qilish.

#### 9. Yetkazib berish joyi va muddati uchun talablar.

Xizmat ko'rsatish muddati: 2023 yil davomida

Xizmat ko'rsatish joyi: Majmuadan 100 km masofa oralig'idagi texnik reglament talablariga javob beradigan maxsus uchastkalarda

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Shurtan posyolkasi, 180300

Tashabbuschi/Buyurtmachi:

ATX boshlig'i:

ATX katta mexanigi:

ATX ICHTMB muhandisi:

Ishonchlilikni boshqarish xizmati boshlig'i:

MTRB xizmati yetakchi muhandisi:



Sh. Qurbonov

O. Jo'rayev

B. Boymatov

T. Diyorov

M. Yusupov